

# **Musiqa madaniyati darslarida nota savodxonligini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari**

Marjona Panji qizi Jovliyeva

Ilmiy rahbar: Ulug'bek Karimjonovich Xurramov

Termiz davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim mакtablarida musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning nota savodxonligini shakllantirishda innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati, samaradorlik omillari hamda amaliy tajribalar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** musiqa madaniyati, nota savodxonligi, innovatsiya, interfaol metodlar, axborot texnologiyalari

## **Innovative approaches to the formation of musical literacy in music culture lessons**

Marjona Panji kizi Jovliyeva

Scientific supervisor: Ulugbek Karimjonovich Khurramov

Termez State Pedagogical Institute

**Abstract:** This article analyzes the importance, effectiveness factors, and practical experiences of using innovative methods in forming students' musical literacy in music culture classes in secondary schools.

**Keywords:** musical culture, musical literacy, innovation, interactive methods, information technologies

### **Kirish**

Musiqa madaniyati darslari, shaxsning badiiy didini, ijodiy qobiliyatini va estetik tushunchalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Nota savodxonligi esa musiqiy bilimlarning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, uni o'rgatishda an'anaviy usullardan tashqari innovatsion metodlardan foydalanish samaradorlikni oshirishi mumkin. Ushbu maqolada nota savodxonligini shakllantirishda qo'llaniladigan zamonaviy yondashuvlar va ularning pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san'at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziylilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan

ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda. Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma'naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. (O'z.Res.Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017-yil 31-may "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida ta'kidlangan.)<sup>1</sup>

Nota savodxonligining ahamiyati.

Nota savodxonligi - bu musiqiy asarlarni notalarda o'qish, yozish va tushunish qobiliyatidir. Bu mahorat musiqachi uchun nutq qobiliyati kabi zarur bo'lib, uni rivojlantirish orqali o'quvchilarda musiqiy tafakkur, ijodkorlik va badiiy ifodachilik qobiliyatlar shakllanadi. An'anaviy nota o'rgatish metodlari ko'pincha quyidagilardan iborat:

- Mashq va takrorlash - o'quvchilar notalarni qo'lda ko'chirish va takrorlab yodlash orqali o'rghanishadi.
- Teoriya markazlashgan darslar - musiqiy terminlar va qonuniyatlarni yodlashga asoslangan.
- Individual mashg'ulotlar - pianino yoki boshqa cholg'u asboblari yordamida mashq qilish.

Biroq, bu usullar ba'zi cheklov larga ega:

- Qiziqishning pasayishi - uzoq vaqt davomida bir xil mashqlarni takrorlash zerikishga olib kelishi mumkin.
- Ijodkorlikning cheklanishi - notalarni mexanik yodlash ijodiy qobiliyatni rivojlantirmaydi.
- Individual yondashuv yetishmasligi - har bir o'quvchining darajasini hisobga olmaslik samarasizlikka olib keladi.

Nota Savodxonligini O'rgatishda Innovatsion Yondashuvlar. Zamonaviy ta'limda raqamli vositalar keng qo'llanilmoqda. Nota o'rgatishda quyidagi dasturlardan foydalanish mumkin:

- Musiqa dasturlari (MuseScore, Finale, Sibelius) - notalarni kompyuterda yozish va tahrirlash imkoniyatini beradi.
- Interaktiv ilovalar (Simply Piano, Yousician) - o'quvchilarga notalarni o'yin shaklida o'rghanish imkoniyatini yaratadi.
- Virtual va kengaytirilgan realilik (VR/AR) - musiqiy asboblarni virtual muhitda o'rghanish imkoniyati. Innovatsion yondashuvlarning yana boshqa turlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari : Interaktiv doskalar, mobil ilovalar (masalan, Note

---

<sup>1</sup> O'z.Res.Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017-yil 31-may "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida ta'kidlangan.

Trainer), virtual pianinolar yordamida o‘quvchilarga nota o‘rganish interaktiv tarzda yetkaziladi.

### O‘yinlashtirish (Gamification) Usullari.

Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish): Nota o‘rganish jarayoniga o‘yin elementlarini joriy etish orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish mumkin. Masalan, “Nota toping” o‘yini, “Ritmni tan ol” mashg‘ulotlari.

Proyektlidagi o‘qitish: O‘quvchilarning o‘z musiqiy loyihamini yaratishi (masalan, oddiy kuylar bastalash) orqali notani amalda qo‘llashi rag‘batlanТИrladi.

Ko‘rgazmali vositalardan foydalanish: Rangli notalar, musiqiy karta va diagrammalar orqali murakkab tushunchalar soddalashtiriladi.

O‘yin elementlarini ta’limga jalb qilish o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi. Misol uchun:

- Ballar va mukofotlar tizimi - notalarni to‘g‘ri o‘qigan o‘quvchilar uchun virtual medallar berish.

- Musiqa o‘yinlari - musiqiy bilimlarni test shaklida o‘tkazish.

### Multisensorli Yondashuv

Notalarni faqat ko‘rish yoki eshitish emas, balki boshqa sezgilar orqali ham o‘rganish samarali bo‘lishi mumkin:

- Harakatli o‘rganish - notalarni qo‘l harakatlari bilan ifodalash (Kodály usuli).

- Rangli nota yondashuvi - har bir nota turli ranglar bilan belgilanadi (Colorful Music metodikasi).

### Jamoa va loyihami asosidagi ta’lim

- Musiqa loyihalari - o‘quvchilar guruh bo‘lib musiqiy asarlar yaratishadi.

- Nota o‘qish musobaqalari - sinf yoki mакtab miqyosida nota bilimlarini baholash.

Nota savodxonligini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Texnologiyalarni qo‘llash, o‘yinlashtirish, multisensorli metodlar va jamoa ishi orqali o‘quvchilarda musiqiy savodxonlikni rivojlantirish mumkin. Kelajakda ushbu metodlarni takomillashtirish va ularni musiqiy ta’limga tatbiq etish keng imkoniyatlar yaratadi.

Innovatsion metodlar qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilarning notani tushunish darajasi an‘anaviy usullarga nisbatan 30-40% yuqori natija bergani kuzatilgan. Interaktiv metodlar yordamida nafaqat savodxonlik, balki ijodiy fikrlash va musiqiy tafakkur ham rivojlanadi.

Musiqa madaniyati darslarida nota savodxonligini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi, darsni qiziqarli va samarali qiladi. Bunday yondashuvlar orqali nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalar ham mustahkamlanadi. Kelajakda bu metodlarni yanada takomillashtirish va darslarga keng joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 31-may "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi qarori.
2. Abdullin.E.B "Методика музыкального образования". - М.: Просвещение, 2020.
3. Stipin.G. M "Музыкальная психология и педагогика". - М.: Академия, 2019.
4. Jamalova.L. "Musiqa ta’limida zamonaviy texnologiyalar". - T.: Fan, 2021.
5. Karpuk G. "Gamification in Music Education". - Journal of Arts and Humanities, 2022.
6. B.I.Mustafoev. Musiqa o'qitush metodikasi: O'quv qo'llanma. Buxoro. OOO "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdonashriyoti. 2021-yil
7. Muxtorova, T. T. (2024). MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI OSHIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDAGI USTUVOR VAZIFALAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(21), 774-781.
8. Abduvaliyeva, M. A. (2021). O'QUV JARAYONIDA GAMIFIKATSİYADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. Academic research in educational sciences, 2(NUU Conference 1), 306-308.